



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Қорақалпоғистон Республикаси

230100 No'kis qalasi, G'a'rezsizlik ko'shesi, 59A u'y, Tel. +99861 2227436 Faks: +998612227365 E-mail: expertiza.rk@mail.ru www.expertiza.mc.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: IBRAGIMOV MAXSETBAY JALGASBAEVICH

Sana: 20-10-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 66289

Obyekt nomi «Chimboy tumani «Jipek joli» MFY hududida Mamutov ko'chasi ichimlik suv tarmog'ini qurish» ob'ekti ishchi loyiha hujjatlariga tayyorlangan»

Buyurtmachi - «Suv ta'minoti va oqova suv ob'ektlari qurilishi bo'yicha injiniring kompaniyasi» UK QR hududiy boshqarmasi.

Bosh loyihachi - «TAZA-SUV» MChJ.

Litsenziya AL-000973 sonli 2020 yil 24 iyunda O'zbekiston Respublikasi Qurilish Vazirligi tomonidan berilgan.

Moliyalashtirish manbai - O'R Moliya Vazirligi "Suv ta'minoti va oqova suv tizimini rivojlantirish jamg'armasi" mablag'lari hisobidan.

Bosh pudratchi - tender savdolariga asosan aniqlanadi.

Qurilish turi yangi qurilish.

Murojaat raqami: № 63636

1. Loyihalash uchun asos

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2022 yil 10 oktabrdagi №151 sonli bayoni.
- 2022 yilda O'zbekiston Respublikasi «O'zsuvta'minot» AJ Boshqaruv raisi tomonidan tasdiqlangan va Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish Vazirligi va buyurtmachi bilan kelishilgan loyihalash topshirig'i.
- Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish vazirligi tomonidan 18.10.2022 yili №1735-1735240-52602 son bilan tasdiqlangan arxitektura-rejalashtirish topshirig'i.
- "Qoraqalpoq suv ta'minoti" MChJ tomonidan 26.08.2022 yil №188 yili sonli berilgan texnik shart.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

«Ishchi loyiha»ni ishlab chiqish bosqichidagi loyiha-smeta hujjatlar.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

Qurilish maydonining o'ziga xos hususiyatlari.

- Shamolning tezligi - 38 kg/m2.

- Qorning og'irligi - 50 kg/m2.

- Hisoblangan zilzilabardoshlik ko'rsatkichi - 7 ball.

- Hisoblangan ob-havo, qishda -20 °C.
- Yerning muzlash qatlami chuqurligi – 1,17m.

Asosiy loyiha yechimlari.

Loyhaning maqsadi – toza ichimlik suv bilan ta'minlanish.

Loyihalashtirilgan suv ta'minoti tarmoqlari "Qoraqalpoq suvta'minoti" MChJ tomonidan berilgan texnik shartlariga asosan ulanish manbayi mavjud Ø315mm. tarmog'idan.

Ishchi loyiha bo'yicha suv ta'minoti tarmoqlarini qurish ishlari belgilangan.

Suv ta'minoti tarmoqlari (vodoprovodnye seti): Suv ta'minoti tarmoqlari polietilen quvurlardan loyihalangan bo'lib Ø110mm, Ø75mm, Ø63mm SDR26 PN6,3 (kg/sm²) PE100 GOST 18599-2001.

Xandaqdagi (transheyadagi) suv quvurlarini yotqizish chuqurligi, yerining tabiiy belgisidan quvurning tubigacha 1,4 metr. Xandaqdagi polietilendan tayyorlangan suv quvurlari qalinligi 10 sm bulgan qum poydevoriga yotqizilgan. Polietilen quvurlarni o'ranatgandan so'ng, to'ldirish qo'lda amalga oshiriladi. Quvurni to'ldirishta, yumshoq maxalliy tuproqdan 30 sm qalinlikdagi quvurlarning yuqori qismiga himoya qatlamini ta'minlash kerak.

Suv quvurining yer usti va yer osti kommunal xizmatlari, yo'llar va elektr uzatish liniyalari bilan kesishgan joyida, tuproq ishlari ushbu tuzilmalarni boshqaradigan tashkilotlar vakillari ishtirokida amalga oshirilishi kerak va tuproqni ishlab chiqish har bir yo'nalishda 2 m qo'lda amalga oshirilishi kerak.

Avtomobil yo'li bilan kesishma joyda diametri Ø325x6mm po'lat quvurli g'ilof urnatiladi.

Suv ta'minoti tizimiga Ø1500mm, Ø1000mm suv quduqlari, uchirish vanalar (zapornaya armatura) va yong'in o'chirish gidranti urnatiladi. Quduqlar 3.900-3V.7 seriyali yig'ma temir-betondan. Quduq yopmasi va osti yig'ma temir-betondan. Quduqni o'rnatgandan so'ng, devorlar va poydevorlar 2 qatlamda bitum bilan qoplanadi va cho'yan qopqoq o'rnatiladi. Quvur tarmoqlarining burilish burchaklarida va vanalar ostida beton to'xtash joylari o'rnatiladi. Loyiha buyicha po'lat quvurli g'iloflar yer usti va osti tashqi yuzalarini polimer yopishqoq lentalar bilan mustahkamlangan korroziyaga qarshi izolyatsiyani ta'minlaydi va ikki marta yog'li bo'yoq bilan bo'yash ko'zda tutilgan. Suv ta'minoti yotqizilgandan so'ng, gidravlik sinov va dezinfeksiya bilan yuvish amalga oshiriladi.

Suv ta'minoti tarmoqlari umumiy uzunligi – 0,763 km shundan: P/E Ø110mm-503pm. Ø75mm-206pm, Ø63mm-52pm. Metall truba Ø108x4mm-2pm.

Ob'ektning asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlari:

Suv ta'minoti tarmoqlari umumiy uzunligi – 0,763 km shundan: P/E Ø110mm-503pm. Ø75mm-206pm, Ø63mm-52pm. Metall truba Ø108x4mm-2pm.

4. Loyihalanyotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

Ob'ektning loyihalash topshiriqlariga asosan toza ichimlik suv tarmoqlari va tegishli idoralar tomonidan berilgan texnik shartlariga asosan toza ichimlik suv ta'minoti bilan ta'minlash, jihozlash ishlari kiritilgan.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Buyurtmachi ishchi loyiha hujjatlari tasdiqlanishidan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko'ra qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) bilan va buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz 233 494,68 ming so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati o'zgarishsiz qoldirildi.

Xususan:

Qurilish-montaj ishlari (Asbob-uskunalar xarajatlarisiz): 191 108,68 ming so'm.

Asbob-uskunalar: 11 930,17 ming so'm.

QQS: 30 455,83 ming so'm.

Bundan tashqari buyurtmachining boshqa xarajatlari: 12 760,00 ming so'm.

Yakuniy harajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so'ng nazorat o'lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

Buyurtmachi loyiha hujjatlarini tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-sonli qarorining 3-bop 29 bandiga muvofiq "Ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma'lumotlarning haqqoniyligi va qabul qilingan loyiha yechimlariga buyurtmachi hamda loyiha tashkiloti javobgardir".

7. Xulosalar.

Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda, barcha me'yor talablari bajarilishi va buyurtmachi tomonidan ob'ektning qurilish materiallar, asbob-uskunalar qiymatlarini va ishlar hajmini maqullash sharti bilan "Chimboy tumani «Jipek joli» MFY hududida Mamutov ko'chasi ichimlik suv tarmog'ini qurish" ob'ektining ishchi loyiha-smeta hujjatlari kelgusida ko'rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya etiladi. Tavsiya qilingan ob'ekt qiymati pudratchi shartnomasiga asos bo'lmaydi.

Bosh mutaxassis: IBADULLAYEV AZIZBEK ALPISBAY ULI